

MAHALLIY MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15354158>

Sodiq Muhammad Fazlulloh Zokir o'g'li

"Oriental" universiteti magistratura bo`limi

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) mutaxassisligi 2-kurs talabasi

THE IMPORTANCE OF METHODS FOR PROMOTING THE EXPORT OF LOCAL PRODUCTS

ВАЖНОСТЬ МЕТОДОВ СТИМУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА МЕСТНОЙ ПРОДУКЦИИ

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarishni rag'batlantirishning asosiy usullari va ularning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Eksportning mamlakat savdo balansiga va yalpi ichki mahsulotga ta'siri, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, tashqi iqtisodiy siyosat orqali yangi bozorlarni topish kabi yo'nalishlar tahlil qilingan. Har bir uslubning afzalliklari va cheklovleri muhokama qilinib, milliy iqtisodiyot sharoitida qaysi usullar samarali bo'lishi mumkinligi haqida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar

eksport, mahalliy mahsulot, rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, logistika, tashqi iqtisodiy siyosat, savdo balansi, infratuzilma.

Sodiq Muhammad Fazlulloh Zokir o'g'li,

a 2nd-year Master's student

at the "Oriental" University,

specializing in Economics (by sectors and industries).

Annotation

This article discusses key methods for promoting the export of local products and their economic importance. It examines the impact of exports on the trade balance and GDP, tax and customs incentives, financial support mechanisms,

infrastructure development, and the search for new markets through foreign economic policy. The paper analyzes the advantages and limitations of each method and concludes which tools may be most effective depending on the national economic context.

Keywords

export, local products, promotion, tax incentives, customs relief, financial support, logistics, foreign economic policy, trade balance, infrastructure.

Содик Мухаммад Фазлуллоҳ Зокир угли,

студент 2-го курса магистратуры

Университета "Ориентал" по специальности

"Экономика" (по отраслям и секторам).

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные методы стимулирования экспорта местной продукции и их экономическое значение. Анализируется влияние экспорта на торговый баланс и ВВП, налоговые и таможенные льготы, финансовая поддержка, развитие инфраструктуры, а также поиск новых рынков сбыта через внешнеэкономическую политику. Обсуждаются преимущества и ограничения каждого из подходов, а также делается вывод о том, какие меры наиболее эффективны в условиях национальной экономики.

Ключевые слова

экспорт, местная продукция, стимулирование, налоговые льготы, таможенные послабления, финансовая поддержка, логистика, внешнеэкономическая политика, торговый баланс, инфраструктура.

Eksport bu tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar kabi mahsulotlarni tashqi bozorga sotish uchun chiqarish ma'nosini bildiradi. Tovarlarni bir mamlakat orqali olib o'tish, ya'ni, transit ham va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga qayta sotish uchun chiqarish reeksport ham eksportning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Eksport tashqi savdodagi muhim ko`rsatkich bo`lib, u savdo balansining manfiy yoki musbat bo`lishga ta'sir ko`rsatadi. Tashqi savdo saldosining qiymati o`z navbatida yalpi ichki mahsulotga ta`sir ko`rsatadi. Zero, eksportning importdan ortiqcha bo`lgan farqi yalpi ichki mahsulotga qo`shiladi. Agar, import eksportdan yuqori bo`lsa, unda savdo balansida manfiy saldo kelib chiqadi va u yalpi ichki mahsulotning investitsiya pozitsiyasidan ayrıldi.

Mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shu sababli davlatlar eksportni rag`batlantirish siyosatini amalga oshiradi. Aynan davlat tomonidan eksportni rag`batlantirishning bir necha usullari mavjud. Xususan, ular:

Milliy iqtisodiyotda soliq va bojxona imtiyozlari eksport qiluvchi korxonalar uchun daromad solig'i, foyda solig'i yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish yoki imtiyozlar berish ko'rinishida yuzaga chiqadi. Bojxona imtiyozlari xomashyo yoki butlovchi qismalarni, agar, ular eksport mahsuloti ishlab chiqarishda foydalaniladigan mahsulotlar bo'lsa, mamlakatga olib kirishda bojxona to'lovlardan ozod qilish amaliyoti qo'llanilishi mumkin.

Tezlashtirilgan bojxona rasmiylashtiruvi va "yashil yo'lak" tamoyili asosida o'tkazish faoliyati. Bu usul mahalliy ishlab chiqaruvchilar xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga va tashqi bozorlarda raqobatchilarga nisbatan past narxda tovar taklif qilish imkoniyatini beradi. Lekin, raqobatbardoshlikda narx faktori har doim ham asosiy hisoblanmaydi.

Agar iste`molchining xarid qobilyati past bo`lsa, bunday imtiyozlar ish berishi mumkin. Ammo, xarid qobilyati yuqori bo`lgan bozorlarga bunday imtiyozlar bilan mahalliy mahsulotlarni olib kirish va ularga nisbatan talabni oshirish mushkul bo'ladi. Chunki, xarid qobilyati yuqori bo`lgan iste`molchi uchun mahsulot narxi birinchi o'rinda turmaydi, uning uchun mahsulot sifati va brendi kabi faktorlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday holatlarda yolg'iz soliq yoki bojxona imtiyozlari eksportni rag`batlantirish yetarli hisoblanmaydi.

Eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportchilarni past foizli kredit va subsidiyalar berish orqali moliyalashtirish amaliyotini bildiradi. Xususan, tijorat banklari orqali davlat kafolati bilan kreditlar ajratish, eksport sug'urtasi, tashqi bozor risklarini kamaytirish maqsadida eksportni siyosiy, tijoriy va moliyaviy risklardan sug'urtalash mumkin. Shuningdek, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish, marketing va brending xarajatlari uchun davlat grantlarini taqdim etilishi kabi moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovlardan mahalliy ishlab chiqarishni rag`batlantiradi.

Mahalliy mahsulotlar xavfsizligi ta'minlanadi kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarni rag`batlantiradi. Ayni paytda, past foizli kreditlar mahalliy ishlab chiqarishning kengayishiga, eksport sug'urtasi eksport qiluvchi mahsulotlarining eksport qilishda duch kelishi mumkin bo`lgan risklardan himoya qiladi.

Moliyaviy qo'llab quvvatlash siyosatining kamchiligi shuki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning imtiyozli past foizli kreditlarni ishlab chiqarishga yo`naltirishi zarur, aks holda moliyaviy qo'llab-quvvatlash kerakli natijani bermasligi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar davlat tarafidan ajratilgan subsidiyalar orqali mahsulot

hajmini va sifatini oshirishi mumkin, ammo mahalliy mahsulotlarni eksporti uchun tashqi bozorlarning mahalliy mahsulotlar bilan tanish bo`lishi va mahalliy mahsulotlarga talab shakllangan bo`lishi zarur. Shuning uchun bunday holatlarda yuqoridagi ikki mexanizmning o`zi eksportning oshishi uchun yetarli bo`lmasligi mumkin. Natijada, muammoni hal qilish uchun davlat yana qo`shimcha instrumentlardan foydalanishga ehtiyoj sezadi.

Infratuzilmani rivojlantirish orqali milliy logistika tizimini kuchaytirish eksport qilinadigan mahsulotlarni tez va arzon tashish uchun temiryo'l, avtomobil yo'llari, dengiz va havo transportini rivojlantirish, logistika markazlari, yuk terminalari va omborlarni tashkil etish, eksport jarayonini elektron tizimlar asosida, xususan, bojxona rasmiylashtiruvi, eksport deklaratsiyasi, to'lov tizimlari va boshqa shu kabi barcha jarayonlarni raqamlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Infratuzilmaning shakllanishi eksport jarayonining tezlashuvi va osonlashuviga sabab bo'ladi. Natijada bu eksport qilishda o'rta va kichik ishlab chiqaruvchilarning ishtirok etishini qulaylashtiradi. Eksport deglaratsiya va to'lov tizmlarining raqamlashtirilishi davlatda mahalliy mahsulotlar eksport haqida to`liq statistik ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta`minlaydi.

Infratuzilma shakllantirish juda katta mablag` va investitsiya talab qiladi. Logistika sohasida mamlakatning geografik joylashuvi juda ahamiyatli hisoblanadi. Geografik jihatdan noqulay, xususan, dengiz kabi suv yo'liga chiqish qiyin bo'lgan joyda joylashgan mamlakatlar uchun logistika xarajatlari qimmatga tushadi. Shu bois, mahalliy mahsulotlarning eksportidagi eng katta mablag` sarflanadigan bo'g'in logistika hisoblanadi. Zero, mamlakatda logistika qanchalik yaxshi rivojlangan bo`lsa, eksportni rag`batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat usulidan foydalanib, mahalliy mahsulotlarni eksport qilish uchun tashqi bozorlarni topish zarur. Buning uchun bojxona bojlarini bekor qiluvchi yoki kamaytiruvchi yoki ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama savdo bitimlari tuzish kerak. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari uchun to'g'ri keladigan bozorlarni topish talab etiladi. Chunki, davlatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy sherikchilik ikkala milliy bozorlar uchun savdo aloqalarini kuchaytiradi.

Mamlakatlar o'zaro iqtisodiy hamkorlik uchun o`ziga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan davlatlar bilan aloqalar o'rnatadi. Chunki, bu davlatlarning talabi bilan taklifi bir biriga mos tushadi. Shu bois, bunday iqtisodiy siyosatlar samarasi yuqori hisoblanadi. Yuqorida eksportni rag`batlantirtishning bir necha usullari ko'rib chiqildi. Xulosa sifatida aytish kerakki, yuqoridagi usullarni qay birini qo'llash mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Zero, bu uslublarning o`ziga xos kamchililari va yutuqli jihatlari mavjud.

Milliy iqtisodiyotning o'ziga xos sharoitida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va tashqi iqtisodiy siyosat instrumentlarini qo'llash samarador hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki, yirik kapitalga ega bolgan ishlab chiqaruvchilar, agar, moliyaviy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadigan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi kengayadi va yangi imkoniyatlar ochiladi. Soliq imtiyozlari esa korxonalarning sarf-xarajatlarini kamaytiradi va tovarlarining xaridgirligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda mahalliy mahsulotlardan brend darajasiga chiqqanlari cheklanganligi uchun tashqi iqtisodiy siyosat orqali imkoniyatlari keng bo'lgan bozor topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimov A., Maxmudov E., Xaydarov N. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: "Zilol buloq nashriyoti", 2020. – 432 b.
2. Vaxabov A.V. va boshqalar Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Baktria press, T.: 2015.
3. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International economics: theory and policy. 12th edition. Harlow, Essex: Pearson, 2023, 817p.
4. Dominick S., International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
5. Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. – 18th Edition. 2024.
6. Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.– T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – 72 b.
7. Tuxliev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish, qonuniyatları, xususiyatları. Monografiya. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2020. – 116 b.
8. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. – T.: "O'zbekiston", 2015. – 176 b.
9. Sodikov Z.R. Globallasuv sharoitida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi. Monografiya. – T.: "Complex print", 2021. – 84 b.
10. Sodikov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi. O'quv qo'llanma. – T.: "Complex print", 2019.